

XURSHID DO‘STMUHAMMAD QISSALARI HAQIDA BA’ZI MULOHAZALAR**Xajikurbanova Nilufar**

Urganch davlat universiteti, Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili, 191-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6790727>

Annotatsiya. Bu maqolada Xurshid Do‘stmuhhammadning qissalari haqida mulohazalar bayon qilinadi va qissalarning mazmun-mohiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: “Nigoh”, yozuvchi mahorati, nigoh, so‘roq.

НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ К РАССКАЗАМ ХУРШИДА ДОСТМУХАММАДА

Аннотация. В данной статье рассматриваются рассказы Хуриида Достмухаммада и говорится о сути рассказов.

Ключевые слова: «Взгляд», писательское мастерство, взгляд, вопрошание.

SOME COMMENTS ABOUT THE STORIES OF KHURSHID DOSTMUHAMMAD

Abstract. This article discusses the stories of Khurshid Dostmuhammad and talks about the essence of the stories.

Key words: "Glance", writer's skill, gaze, questioning.

KIRISH

Bilamizki, Xurshid Do‘stmuhammad hozirgi adabiy jarayondagi qalami o‘tkir yozuvchilardan biri hisoblanadi. Uning asarlari boshqa ijodkorlarnikidan o‘ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Yozuvchining roman, qissa va hikoyalarda insonlar taqdiri, davr muhiti, o‘tmish kabi mavzular qalamga olingan. Xurshid Do‘stmuhhammadning “Bozor”, “Donishmand Sizif”, “O‘yin” romanlari, “Panoh”, “Nigoh”, “So‘roq”, “Oromkursi”, “Sof o‘zbekcha qotillik”, “Hijronim mingdir mening” qissalari va “Mahzuna”, “Jajman”, “Maskovlik yaxshi odam”, “Kiova quyoshi” kabi bir qator hikoyalari bor. Adibning “Nigoh” nomli qissasiga to‘xtalar ekanmiz, bu asarda tramvay haydovchisi Bekning hayotida sodir bo‘lgan voqealar va avtohalokatdan keyin uning olamga o‘zgacha nigoh bilan qarashi tasvirlanadi. Asar tramvayning yana boshqa mashina bilan avtohalokatga uchragani bayon qilinar ekan, bu voqealarni Bekning hayotida burilish yasaydi. U avval oddiydek qaraydigan, gohida e’tibor ham bermaydigan narsalar shundan keyin unga o‘zgacha tus bag‘ishlay boshlaydi. Chunki unga shu hodisa dars bo‘ladi. Dunyo go‘zalliklarini chiroyligi nigohlarda ko‘rib anglay boshlaydi. Bu qissada yana insonlarning nigohlaridagi mohiyatlar ham aytildi, ya’ni avtohalokat chog‘ida tramvay bilan to‘qnashgan mashinadagi ayolning nigohida xuddi o‘sha ayolning butun bir umrini ko‘rsa bo‘lardi, deya ta’kidlanadi Bekning xayollarida. Shu bilan birga Bekning xotini Zamiraning oqilligi, fahm-farosatliligi, eriga bo‘lgan hurmati tasvirlanadi. U hamma narsani reining xohisha qarab qiladi, erining kayfiyati yomon bo‘lsa, kun bo‘yi unga aytish uchun diliga tugib qo‘ygan gaplarini unutadi, ichiga yutadi, mana shu o‘rinlarda uning aqli ayol ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Xurshid Do‘stmuhhammadning “Panoh” qissasida Ahmadali bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina voqealari tasvirlanadi. Bu qissada quyidagicha to‘s-to‘polon ham aks etgan: “Lekin o‘sha yer silkingan chog‘ eski guvala devorning change bu qadar tajovuzkor bo‘lishi xayoliga kelibdim! Aksinchalama bir nima dupurlaganini, ola-tasir va odamlarning qiy-chuvida o‘zi borayotgan so‘qmoq yo‘ldek tor yo‘lkada bir mashina un ag‘darilgandek oppoq to‘zon ko‘tarilganini ko‘rdi, xolos. So‘l yondagi devor yo‘qolib daf’atan qop-qorong‘i, vahimali bir

yalanglik namoyon bo'ldi, Ahmadali shoshganidan yuz bergan hodisani anglab-anglamay chapga burildi, burildi-yu, tomon yugurdi". Ahmadali ayoli bo'lmish Ma'rifatni va kichik o'g'lini o'ylab xavotirlanadi. Bu hodisa zamirida xalqning ijtimoiy hayoti ham tasvirlanadi.

TADQIQOT NATIJASI

Yozuvchining qissalaridan yana bittasi "So'roq" asaridir. Bu qissada Bozorboy va Shabnamning oilaviy tashvishlari, Bozorboyning traktorchiligi, qishloq xalqining hayot tarzi va asosan, Bozorboyning muammolari bayon qilinadi. Qissa quyidagi jumlalar epigraf qilib olingan: "So'roqqa tutilmay turib, o'zlarining o'zlarining so'roq qilinglar". Hadisdan olingan ushbu jumlalar orqali qissasning mohiyati, undan anglashiladigan mazmun yoritib berilgan. Bu asarda Shabnamning tug'adigan vaqtidan uch oy o'tib ketib, uning homiladorligiga o'n ikki oy bo'ladi. Bu uchun odamlar uni ko'p so'roq qilishadi. Xullas, qissaning yakunida ham Shabnamning qornidagi go'dakning taqdiri hal qilinmaydi. "Osmondan tushadimi, yerdan chiqadimi – so'roqchi zotidan cho'chimaysan, negaki, javobing tayin bo'ladi. Tinchiymiz, sen tinchlansang anavi tinchanadi, ana o'shanda u eson-omon tug'iladi. Paxtaqaynarda qo'rquvni bilmaydigan yana bir odam tug'iladi!" Qissada Bozorboy va Shabnamning boshidan kechirganlari tasvirlanar ekan, Bozorboyni izidan quvib kelib so'roq qilguvchilar ham topiladi.

MUHOKAMA

Xurshid Do'stmuhammadning qissalaridagi qahramonlar taqdiri turlicha, ularning fe'l-atvorlari ham bir-biridan tubdan farq qiladi, lekin shunday bo'lishiga qaramay, qissalarni bir-biri bilan bog'lab turuvchi qaysidir jihatlari ham bor. Tahlil qilgan qissalardagi qahramonlar ruhiyatida ham o'xshashliklarni sezamiz. Bek va Zamira, Ahmadali va Ma'rifat, Bozorboy va Shabnamlarning hayotlaridagi bir-biriga o'xshash bo'lgan vaziyatlarni guvohi bo'lamiz. Yozuvchining mahoratini uning qissalarini o'qish jarayonida ham bilib olamiz. Qissalarning sarlavhasiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, "So'roq", "Nigoh", "Panoh" so'zları negizida qissaning tub mohiyati ochib beriladi. Xurshid Do'stmuhammadning asarlarini o'qish jarayonida uning boshqalarni takrorlamaydigan uslubining guvohi bo'lamiz. Uning uslubini asarni bir o'qishda tushunmaslik mumkin, lekin bu anglab yetilsa, kitobxonga o'zgacha zavq bag'ishlaydi.

XULOSA

Adibning yuqorida tahlil qilingan qissalarida shu holatni kuzatishimiz mumkin. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Xurshid Do'stmuhammadning qissalari o'zbek adabiyotining boyishiga hissa qo'shib kelmoqda. Adibning nafaqat qissalari, balki boshqa janrdagi asarlari ham o'ziga xos mavqega ega hisoblanadi. Yozuvchining qissalaridagi qahramonlar taqdiri, kutilmagan vaziyatlarning bo'lishi asarning o'qishliliginini ta'minlaydi. Xurshid Do'stmuhammadning asarlari ham adabiyotshunoslar tomonidan yuqori baholanib kelmoqda va yozuvchining yangi nashrдан chiqayotgan asarlari o'quvchilar tomonidan iliq kutib olinmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. X.Do'stmuhammad. Qissalar. So'roq. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent-2011.
2. S.Sodiq.Hozirgi o'zbek adabiyoti. "O'zbekiston". Toshkent. 1992.
3. Sh.Nazarova. Yangi qissachilik sarhadlari. "Sharq yulduzi" jurnali.2013 yil. 3-sont.